

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM , FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“Tasdiqlayman”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil

ETNOMADANIYAT
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi:	60111100 - Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi

Qo‘qon – 2025

Fan/modul kodi Et13408		O'quv yili 2025-2026	Semestr 3-4	ECTS - Kreditlar 8	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Etnomadaniyat	120		120	240
2.	I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga xalkimizning tarixiy shakllanishi, uning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot bosqichlari, milliy madaniyatimizning o'tmishda qo'lga kiritgan yutuqlari, elat, qavm, millat tushunchalarining mazmun va mohiyatini tushuntirish, o'tmishda va hozirgi kunda muayyan darajada shakllanib va taraqqiy etib kelayotgan milliy madaniyatimizning tadrijiy - tarixiy jarayonini o'rgatishdan iborat. Fanning asosiy vazifalari - etnomadaniyat faniga oid tushuncha va tamoyillar to'g'risida talabalarga zamonaviy talablar asosida har taraflama chuqur bilim berish; - ularning umuminsoniy dunyoqarashlarini shakllantirish; - ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarini yuzaga chiqarish kabi omillarni ilmiy jihatdan tadbiq etib, talaba yoshlarga Vatanni sevishtirish va ardoqlash, milliy qadriyat va an'analarni e'zozlash tuyg'ularini singdirishdan iborat.. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Etnomadaniyat fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston milliy universitetining 6B02203-Dinshunoslik fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 163-o'rinni egallagan bo'lib, ushbu sohada yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Al-Farobiy universitetining Dinshunoslik kursida dinshunoslik bilan bir qatorda, din sotsiologiyasi, din estetikasi, din psixologiyasi kabi fanlar dasturlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllantirishdan hamda dinshunoslik sohasidagi yetakchi mamlakatlarning ilg'or tajribalarini ommalashtirishga doir nazariy va amaliy bilim, ko'nikmalarni tartibga solish amaliyoti ham keng yoritiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro ta'lim me'yorlari, xususan, ilmiy madaniyat normalari va qoidalarini, dunyoni tanqidiy idrok etishning samarali texnologiyalarini, shuningdek, media etikasi va qonunchiligini hisobga olgan holda multimedia kontent vositalaridan foydalangan holda media bozorini ilgari surish va boshqaruv prinsiplari asosida boyitilgan.				

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – talabalar dunyodagi axborot oqimini tanqidiy idrok etish, mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishni o'rganadilar.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

III-Semestr

I – MODUL. Etnomadaniyat fani rivojlanishining tarixiy-nazariy asoslari

1-mavzu: Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Etnomadaniyat atamasining kelib chiqishi. Mustaqillik sharoitida xalqimiz etnomadaniyati, an'ana va qadriyatlariga yangicha nazar.

O'zbekiston Resublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi huzuridagi "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi Qarorida o'tmish milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirish, buyuk ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan bebaho madaniy-ma'rifiy merosini ko'z qorachig'iday asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yodgorlik qilib qoldirish borasida aniq ko'rsatmalar berilganligi.

Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari, ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidagi o'rni.

2-mavzu: Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, etnografiyasi muammolari

Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri bo'lib kelganligi. O'tmishdagi ajdodlarimiz madaniyatining rivojlanish kurtaklari eng qadimiy poleolit davriga borib taqalishi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqlarining yarim million yil doirasidagi tarixi, madaniyati, rasm-rusm hamda urf-odatlarini o'rganish bilan bog'liq dolzarb vazifalar.

3-mavzu. Ajdodlarimizning qadimgi makonlari

Ajdodlarimizning qadimgi makonlari, hayot va turmush tarzi, ma'naviy-madaniy xususiyatlari to'g'risida ma'lum tasavvurlar hosil qilishda Farg'ona vodiysining So'x tumanida topilgan Sulung'ur g'oridagi asori - atiqalar, Anov va Namozgoh, Sopollitepa qazilmalari namunalari o'rni.

4-mavzu: O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar

Tarixiy manbalarning umumiy tavsifi. Qadimgi odamlarning manzilgohlari, qadimgi shaharlar, qal'alar va ularning xarobalari, sug'orish inshootlari qoldiqlari, ajdodlarimizning mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, zeb-

ziynatlar, tangalar, qoyatosh sur'atlari, petrogliflar, yozma hujjatlar –tarixiy manbalar sifatida.

5-mavzu. Xalqimiz tarixi, madaniy-ma'naviy takomilini o'rganish

Xalqimiz tarixi, madaniy-ma'naviy takomilini o'rganishda tarixiy manbalarning o'ri. Tarixiy manbalarning guruhlarga bo'linishi: ashyoviy manbalar, etnografik manbalar, fol'klor manbalar, lingvistik manbalar, fotokinohujjatlar, fonohujjatlar, yozma manbalar.

II – MODUL. Etnomadaniyatning tarkibiy qismlari: xalq turmush tarzi an'analari, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi

6-mavzu: Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'ri

Markaziy Osiyo zaminida dehqonchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan an'analari, marosim-bayramlar. Eng qadimiy davrlardan boshlab termachilik, ovchilik, chorvachilik, deqqonchilikka oid mehnat tajribalari bilan birga shakllana boshlagan o'yin-raqslar.

7-mavzu. Xalq o'yinlari – etnomadaniyatning tarkibiy qismi.

Xalq o'yinlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Chorvachilik bilan bog'liq xalq o'yinlari. Yil fasllari, shahar va qishloqlarga xos o'yinlar tizimi. Boshqotirma, so'z, qo'shiq, raqs-o'yinlar, voqeband, harakatli o'yin turlari.

Sho'rolar davrida xalq o'yinlariga bir tomonlama e'tibor.

Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda Milliy o'yinlarning tiklanishi va rivojlanishi.

8-mavzu: Qadimgi davr o'zbek folklori – etnomadaniyat tarixida muhim manba

Folklorshunoslik yoki folkloristika – xalq og'zaki badiiy ijodini o'rganuvchi fan sifatida. Folklorshunoslik asoslarining shakllanishi tarixi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to'g'risidagi ilk fikrlarining folklorshunoslik rivojidagi o'ri. Folklor namunalarini yozib olishdagi ilk tajribalar. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit-turk” asaridagi folklor namunalari.

Qadimgi davr folklori. Etnomadaniy jarayonning shakllanishida qadimgi davr folklorining o'ri va ahamiyati .

9-mavzu: O'zbek xalq og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va xalq dostonlari

O'zbek xalq og'zaki ijodi. Maqol – xalq hayotiy tajribalari xulosasini ifodalovchi hikmatli fikrlar majmuasi. Topishmoqlar – xalq zukkoligi va topqirligi mahsuli. Chistonlar. Xalq qo'shiqlarining paydo bo'lishi. Qo'shiqlarda xalq orzu armonlarining ifoda etilishi.

10-mavzu. Xalq dostonlari

Doston – o‘zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biri. Dostonlar yaratilishining xalqimiz etnomadaniy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liqligi.

Doston – sinkretik-omuxta janr. Yurtimizning turli hududlarida xalq dostonlari ijrochilarining turli nomlar bilan yuritilishi.

11-mavzu: Madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o‘rni

Insoniyat madaniy taraqqiyoti tarixida antik teatrning o‘rni.

Qadimgi Yunonistonda Esxil, Sofokl Evripid, Aristofan, Rimda Plavt va Senekalar yangi sahnaviy shakllar, umumlashgan falsafiy, teran badiiy obrazlar orqali el-yurti jo‘shqin sevisish, qadrlash e‘tiqodlarini tarannum etganliklari. Antik dunyodan bizgacha yetib kelgan tragediya, komediya janrlariga oid badiiy yuksak, adabiy namunalar.

12-mavzu. Teatr va raqs san‘ati

Raqs san‘ati – madaniyatning o‘ziga xos, eng go‘zal turi sifatida. Raqs san‘atining estetik jihatlari. Raqslarga ko‘chgan orzu-armonlar.

Xalq madaniyatining takomillashib borishida teatr va raqs san‘atining beqiyos ulushi va ahamiyati.

13-mavzu: Etnopedagogikaning yosh avlod ma‘naviyatini shakllantirishdagi roli

Millatning shakllanishida milliy tarbiyaning o‘rni. Milliy tarbiya xalq pedagogikasining muhim yo‘nalishi. Xalq pedagogikasi – xalq ijodining tayanch tomirlaridan biri .

14-mavzu. Xalq ijodi – bitmas-tuganmas xazina.

Millatni millat sifatida, xalqni xalq sifatida saqlab turish – xalq pedagogikasining muhim xususiyatlaridan biri.

Bayramlar – inson hayotining eng muhim va tarkibiy qismi. Har bir millat, elat va xalqning o‘z taraqqiyot tarixi jarayonida shakllangan bayramlari mavjudligi. O‘zbek xalqi bayramlari.

15-mavzu: An‘anaviy oila - turmush marosimlari – xalq madaniyatining fenomeni

XX asr so‘nggi choragidan boshlab dunyo miqyosida marosimlarni xalq madaniyatining fenomeni tarzida o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilganligi. So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo miqyosida kechayotgan globalizatsion jarayonlar va etnik xususiyatlarni saqlab qolish hamda milliy marosimlarni tadqiq etish muammolari.

IV-semestr

III – MODUL. Etnomadaniyat va milliy-ma‘naviy tarbiya

16-mavzu. Oila va oilaviy marosimlar.

Nikoh to‘yi. Xalqimizning qadimiy e‘tiqodlari, madaniyati, orzu intilishlari, hayotga munosabatini o‘rganishda nikoh to‘yi bilan bog‘liq marosimlarning o‘rni. O‘zbek to‘y marosimlari: turlari, irim-sirimlari, etnografik xususiyatlari.

17-mavzu: O‘zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari

Etnologik yo‘nalishda bajarilgan tadqiqotlarda moddiy madaniyat (turar joylar, kiyimlar, taqinchoqlar, oziq ovqatlar)ni odatda grafik tasvirlar, planlar, chertyojlar, rasmlar, fotosuratlar yordamida batafsil tavsiflash va ilmiy tahlil qilish o‘ziga xos an‘anaga aylanganligi. Moddiy madaniyatning etnologik yo‘nalishda tadqiq etilishi, undan ko‘zlangan maqsadlar. Moddiy madaniyat namunalarida aks etuvchi ramz, belgilar, ular bilan bog‘liq tasavvurlar, e‘tiqodiy qarashlar. Moddiy madaniyat namunalarining inson bilan aloqadorligi.

18-Markaziy Osiyo xalqlarini rivojlanishida Sunna bosqichining mohiyati va uning milliy ma‘naviyatimiz takomili

Milliy ma‘naviyatimiz takomili. Milliy ma‘naviyatimiz erishgan yutuqlar. Matn va manbaga yondashuv, bu borada Imom al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Iso at-Termiziy saboqlari. Silai rahm qilish – o‘zgalarga nisbatan qarindoshlariga g‘amxo‘r va muhabbatliroq bo‘lish, ulardan xabardor bo‘lib, moddiy-ma‘naviy jihatdan qo‘llab turish. Halol rizq topish. Kibr va havolanishdan qaytish.

19-mavzu: Mahalliy madaniyat va tarbiyaning integratsiyasi: Markaziy Osiyo tajribasi

Yurtimizda ta‘lim-tarbiya va ayniqsa, yoshlar tarbiyasi masalasi davlat siyosati darajasida ko‘tarilgani. Tarbiya kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri bo‘lib kelganligi. O‘tmishdagi ajdodlarimiz madaniyatining rivojlanish kurtaklaridan biri bo‘lgan milliy tarbiyani roli.

Ajdodlarimiz tamonida tarbiya va milliy tarbiyaga etiborni muhimligi.

20-O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixida “dunyo (borliq) mohiyatini talqin qilish” masalasiga oid eng muhim manbalar

Tarixan jahon halqlari milliy tarbiyasida dunyo (borliq) mohiyatini talqin qiluvchi qarashlar va ta‘limotlar. Jahon halqlari milliy tarbiyasida dunyo (borliq) mohiyatini talqin qilish borasidagi qadimdan to shu bugungacha bo‘lgan qarashlar.

Xalqimiz tarixi, madaniy-ma‘naviy takomilida ta‘limotlar ham tarbiya jarayonida asosiy rol o‘ynashligi.

21-mavzu: Etnomadaniy qadriyatlarimizda Tarbiya kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri bo‘lib kelganligi.

Etnomadaniy qadriyatlarimizda Tarbiya masalasiga oid tadqiqotlar uzoq ming yillik tarixga ega ekanligi. Etnomadaniy qarashlarda tarbiya masalasiga

umumiy hamda zamon va makon nuqtai nazaridan yondashilgani, ularda tarbiya masalasi. Tarbiya jarayonini tashkil etishga doir tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, refleksiv, germeneytik, sinergetik yondashuvlar.

22-mavzu: Ekologik inqiroz sharoitida xalqona yondashuvlarning ahamiyati

Ekologik ong, uning etnomadaniyat bilan uyg'unligi. Ekologik madaniyat va etnoekologik an'analar haqidagi tarixiy falsafiy manbalar. Fan, madaniyat, ijtimoiy ong va milliy o'z-o'zini anglashning ekologizatsiyasi.

Ijtimoiy ekologiya – jamiyat va tabiat o'zaro ta'sirini o'rganuvchi fan. Ekologik an'analar va yosh avlod ongida moddiy va ma'naviy ne'matlarni asrash madaniyati shakllantirish zaruriyati. Xalq axloqida tabiatni asrash haqidagi tasavvurlarning shakllanishi. Zamonaviy global ekologik ziddiyatlarni yechishda davlat tashkilotlarining roli.

23-mavzu: Etnomadaniyat fanini o'qitishning metodologik muammolari tahlili va ularning yechimlari

XXI asr insoniyat taraqqiyotining fan-texnika sohasida barcha davrlardan ham yuksak marallarga erishilganligi.

Etnomadaniyat fanini o'qitishda metodologik muammolar mavjudligi va ularni bartaraf etish yo'llari. Davr talablaridan kelib chiqqan holda yosh avlodda hozirgi davrda yashash uchun zarur ko'nikmalar – XXI asrning intellektual ko'nikmalarini shakllantirish muhim ekanligi.

24-mavzu: Yosh avlodda hozirgi davrda yashash uchun zarur ko'nikmalar – XXI asrning intellektual ko'nikmalarini shakllantirishda Etnologik qarashlarni o'rni.

XXI asrning intellektual ko'nikmalarini shakllantirishda etnologik qarashlarni ahamiyati. Etnomadaniy qadriyatlarimiz tizimida "Komil inson" tushunchasi muhim ma'no ahamiyatga ega ekanligi. Mustaqillik bo'is komil inson g'oyasining yuzaga chiqarishning ob'ektiv, sub'ektiv shart-sharoitlari.

25-mavzu: Etnomadaniyat fanini nazariyasi va amaliyotini samarali tashkil etish muammolari

Etnomadaniyat fanini o'qitish nazariyasida, albatta, dunyo (borliq) mohiyatini to'g'ri talqin qilishdan tashqari, inson mohiyati va tabiatini tahlili.

Inson mohiyati azaldan tadqiqot ob'ekti bo'lib kelganligi. Xalqimizni etnogenezidan to shu kungacha uning mohiyati va tabiati to'g'risida ko'plab fikr, mulohaza va yondashuvlar ilgari surilgan. Insonning tom ma'noda tarbiyalanishida eng asosiy mezon bu – ma'naviyat hisoblanishi.

26-mavzu: Yurt tinchligi g'oyasi - milliy qadriyat

Yurt tinchligi - milliy mafkuraning asosiy g'oyalaridan biri, mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiy sharti. Yurt tinchligi – ulug' ne'mat. Tinchlik, shukronalik ulug' qadriyat.

27-mavzu: Xalq farovonligi g'oyasi - ulug' qadriyat

Xalq farovonligi g'oyasining mazmuni, uning azaliy va abadiy qadriyat ekanligi. Xalq farovonligi g'oyasining ruyobi. Xalq farovonligi odamlar ongida yanada chuqurroq singdirib borishning zarurati.

28-mavzu: Komil inson g'oyasi - taraqqiyot g'oyasi

Komil inson tushunchasining mohiyati. Mustaqillik va komil inson g'oyasi. Komil inson g'oyasining tarixiy-ma'naviy ildizlari. Intellektual salohiyatli yoshlar – buyuk kelajak poydevori.

29-mavzu: Ijtimoiy hamkorlik azaliy va abadiy qadriyat

Ijtimoiy hamkorlik-asosiy maqsad, Jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, barqaror taraqqiyotga erishishning mustahkam kafolati, Ijtimoiy hamkorlik g'oyasi, Fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlash

30-mavzu: Millatlararo totuvlik milliy va umumbashariy qadriyat

Millat" tushunchasining mazmun-mohiyati. "Millatlararo totuvlik" tushunchasining mazmuni. Konstitutsiya millatlararo totuvlik va hamjihatlik garovidir. Milliy madaniy markazlar–millatlararo totuvlikni mustahkamlashning muhim omili.

VI. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari
2. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, Etnografiyasi muammolari
3. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar
4. Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni
5. Qadimgi davr o'zbek folklori – etnomadaniyat tarixida muhim manba
6. O'zbek xalq og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va xalq dostonlari
7. Madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'rni
8. Etnopedagogika va milliy ma'naviyat
9. An'anaviy oila - turmush marosimlari – xalq madaniyatining fenomeni
10. O'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari
11. Milliylik falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida
12. Etnomadaniyat va milliy o'z-o'zini anglash
13. Ekologik ong va etnomadaniyat
14. Milliy o'zlikni anglash jarayonida etnomadaniyatning o'rni
15. Etnomadaniyat va milliy g'oya mushtarakligi.
16. Milliy ma'naviyatimiz takomili.
17. Imom al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Iso at-Termiziy saboqlari
18. Silai rahm qilish – o'zgalarga nisbatan qarindoshlariga g'amxo'r va muhabbatliroq bo'lish.
19. Halol rizq topish.
20. Kibr va havolanishdan qaytish.
21. Tarbiya va milliy tarbiya tushunchalarining mazmun-mohiyati.

22. Tarbiya jarayonini tashkil etishga doir tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, refleksiv, germenevnik, sinergetik yondashuvlar.
23. Xalqimiz tarixi, madaniy-ma'naviy takomilida ta'limotlar ham tarbiya jarayonida asosiy rol o'ynashligi.
24. Yosh avlodda hozirgi davrda yashash uchun zarur ko'nikmalar – XXI asrning intellektual ko'nikmalarini shakllantirish
25. "Komil inson" tushunchasi va mano mazmuni
26. Yurt tinchligi g'oyasi - milliy qadriyat
27. Xalq farovonligi g'oyasi - ulug' qadriyat
28. Komil inson g'oyasi - taraqqiyot g'oyasi
29. "Ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashishda etnomadaniy qadriyatlarning o'rni
30. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi - milliy yuksalish asosi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- ✓ Nazariy va amaliy mashg'ulotlar mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish va berilgan mavzu bo'yicha konspekt yozish;
- ✓ Glossariy tuzish;
- ✓ Multimedialli taqdimotlar yaratish;
- ✓ Mavzuga oid adabiyotlarga sharx yozish;
- ✓ Mavzu yuzasidan slayd tayyorlash;
- ✓ Esse yozish;
- ✓ Berilgan tushunchalarga ta'rif yozish;
- ✓ Savollarga javob yozish;
- ✓ Insho yozish;
- ✓ Klaster tuzish;
- ✓ Bir javobli test tuzish;
- ✓ Rasmlil topshiriqlar tayyorlash;
- ✓ Xalq qo'shiqlari va termalari bo'yicha Klaster tuzish;
- ✓ Venn diagrammasi asosida xalq teatri va milliy raqslarini qiyoslash;
- ✓ Maqollar yozib, ularni sharxlash;
- ✓ Topishmoqlarni jamlash;
- ✓ Mavzuga oid tushunchalarni jadval ko'rinishiga keltirish;
- ✓ Venn diagrammasini tuzish;
- ✓ Mavzuga oid savollar to'plamini tayyorlash;
- ✓ Muayyan interfaol ta'lim metodi asosida tayyorlangan topshiriqni bajarish.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirishda Etnomadaniyat fanining ahamiyati.
2. Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri.
3. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi tarixi.
4. Tarixiy manbalar.
5. Tarixni o'rganishda tarixiy manbalarni beqiyos ahamiyati.
6. Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni.
7. Xalqimiz hayotiga marosim-bayramlarning kirib kelishi.
8. Xalq o'yinlari – Etnomadaniyatning tarkibiy qismi.
9. Qadimgi davr o'zbek folklori – etnomadaniyat tarixida muhim manba
10. An'anaviy oila - turmush marosimlari – xalq madaniyatining fenomeni.
11. O'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari
12. Milliylik falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida
13. Etnomadaniyat va milliy o'z-o'zini anglash.
14. Etnomadaniyat va etnopsixologiya
15. Toponomika va milliy o'z-o'zini anglash.
16. Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
17. Etnomadaniy qadriyatlarning tarixiy ildizlari.
18. Yurt tinchligi g'oyasi - milliy qadriyat.
19. Vatan ravnaqi - olam ravnaqi umumbashariy qadriyat sifatida.
20. Xalq farovonligi g'oyasi - ulug' qadriyat.
21. Komil inson g'oyasi - taraqqiyot g'oyasi.
22. Ijtimoiy hamkorlik azaliy va abadiy qadriyat.
23. Millatlararo totuvlik milliy va umumbashariy qadriyat.
24. Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi - milliy va umumbashariy qadriyat.
25. Jahon axborot tarmog'idagi g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan himoyalashda milliy g'oya va etnomadaniy qadriyatlarning roli.
26. "Ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashda milliy g'oya va etnomadaniy qadriyatlarning o'rni.
27. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida etnomadaniy qadriyatlar rivoji.
28. Milliy g'oya va qadriyatlar negizi.
29. O'zbek etnomadaniyatining milliy o'zlikni anglashdagi funksiyalari.
30. Etnomadaniy meros va undagi transformatsiya jarayonlari.
31. Xalq moddiy va ma'naviy qadriyatlari, ularning milliy g'oya bilan aloqadorligi.
32. Xalq og'zaki ijodiyotida etnomadaniy qadriyatlarga xos xususiyatlarni namoyon bo'lishi.
33. Xalq o'yinlarida etnomadaniy qadriyatlarimizning namoyon bo'lishi.
34. Xalqni etnogenezisida rivojida xalq tomosha san'ati, teatri hamda milliy raqsni o'rni.
35. Ta'lim-tarbiya negizlarining milliy g'oya va etnomadaniy qadriyatlar bilan uyg'unligi.
36. Xalqimizga xos ma'naviy-axloqiy qadriyatlari va ruhiyatning - milliy g'oya va qadriyatlar tizimida namoyon bo'lishi.

	37.Oila - qadriyatlar beshigi. 38.Vatanparvarlik azaliy va abadiy qadriyat ekanligi. 39.Milliy g'oya va etnomadaniy qadriyatlar tizimida xalq donishmandligi, og'zaki ijodi, falsafasi tafakkur durdonalari. 40.Tarixiy xotira, etnotoponimlar - o'zlikni anglash omili. 41.Milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirishda Etnomadaniyat fanining ahamiyati. 42.Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri. 43.Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi tarixi. 44.Tarixiy manbalar. 45.Ijtimoiy hamkorlik-asosiy maqsad 46.Yurtimizda ta'lim-tarbiya va ayniqsa, yoshlar tarbiyasi masalasi 47.Tarbiya kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri 48.O'tmishdagi ajdodlarimiz madaniyatining rivojlanish kurtaklaridan biri bo'lgan milliy tarbiyani roli. 49.Ajdodlarimiz tamonida tarbiya va milliy tarbiyaga etiborni muhimligi. 50.Milliy ma'naviyatimiz takomili. 51.Milliy ma'naviyatimiz erishgan yutuqlar. 52.Matn va manbaga yondashuv, bu borada Imom al-Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Iso at-Termiziy saboqlari. 53.Silai rahm qilish – o'zgalarga nisbatan qarindoshlariga g'amxo'r va muhabbatliroq bo'lish, ulardan xabardor bo'lib, moddiy-ma'naviy jihatdan qo'llab turish. 54.Halol rizq topish. 55. Kibr va havolanishdan qaytish. 56.Etnomadaniy qadriyatlarimizda Tarbiya masalasiga oid tadqiqotlar uzoq ming yillik tarixga ega ekanligi. 57. Etnomadaniy qarashlarda tarbiya masalasiga umumiy hamda zamon va makon nuqtai nazaridan yondashilgani, ularda tarbiya masalasi. 58.Tarbiya jarayonini tashkil etishga doir tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, refleksiv, germevistik, sinergetik yondashuvlar. 59.Tarixan jahon halqlari milliy tarbiyasida dunyo (borliq) mohiyatini talqin qiluvchi qarashlar va ta'limotlar. 60.Jahon halqlari milliy tarbiyasida dunyo (borliq) mohiyatini talqin qilish borasidagi qadimdan to shu bugungacha bo'lgan qarashlar.
3.	V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: etnomadaniyat tushunchasining mazmun va mohiyati, fanning predmeti, maqsad va vazifalari, o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar, etnomadaniyatning shakllanish omillari, etnopedagogika va milliy ma'naviyat uyg'unligi, xalq madaniyatining rivojlanishida an'anaviy oila-turmush marosimlarining o'rni, o'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari, etnomadaniyat va o'z-o'zini anglashning mohiyati, etnomadaniy jarayonlar, toponomika to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi zarur; (bilim)

	- o'zbek xalqi etnomadaniyati tarixi, shakllanish jarayoni, etnomadaniyatning shakllanishda xalq og'zaki ijodi, xalq teatri va boshqa omillarning o'rni borasidagi bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;(ko'nikma) - yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda o'zbek xalq og'zaki ijodidan foydalana olish, ta'lim tarbiya tizimida xalq maqollari, topishmoqlari, qo'shiqlari va xalq dostonlarini o'rinli qo'llash olish, madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'rnini o'quvchi yoshlarga tushuntira olish, o'quvchilarda an'anaviy oila-turmush marosimlari haqida tasavvurlarni shakllantira olishi kerak. (malaka)
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: - ma'ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamo bo'lib ishlash va hikoya qilish uchun loyihalar
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni, bilimlarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yurita olish va joriy, oraliq nazorati shakllarida berilgan topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqlarni bajarish
6.	Asosiy adabiyotlar: - Murodov M., Qorabayev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.– T.: Adolat, 2021 yil. - Esonov.Z Etnologiya. – Farg'ona, 2024 yil. - Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – T.:TDPU, 2020 yil. - Sobirova M., Xoliqov I. Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma.–T.: “INNOVATSIYA - ZIYO”, 2021 yil. Qo'shimcha adabiyotlar: - Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. - Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan Yeng oliy bahodir. –Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,2018 - Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, 1993. - Aminova M. va boshqalar. Globallashuv asoslari. O'quv qo'llanma. T. Yangi asr avlodi. 2021 y.

	5. Aminova M. va boshqalar Globallashuv va hozirgi davr. Monografiya. T. Yangi asr avlodi. 2021 y. 6. Aminova M. Ma'naviyatshunoslik. Elektron darslik. 2024 y. 7. Qurbonov J.A. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirish. Namangan, Usmon Nosir media. 2023. 8. Baratboyev B. O'zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. Ilm va fan. 2023. 9. Baratbayev B. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (O'quv qo'llanma) "Farg'ona" nashriyoti, 2020 yil. 10. Baratboyev B., Xaydarova D. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. Toshkent. Ilm va fan. 2023. 11. Oripov E.Sh. Milliy g'oya tarixi va nazariyasi. Elektron darslik. 2021 yil. 12. Shamsiddinov B.J., Otajonov G'.U. "Mantiqan to'g'ri fikrlashning umumiy qonunlari" O'quv qo'llanma. Toshkent. 2015. 13. Sapaxonov X., Yuldasheva M. Etika-estetika asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2004 14. Nazarov Q., Kadirov M., Yuldasheva M. Falsafa. O'quv qo'llanma. Toshkent. Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. 15. Ортиков.О. Философия. Учебное пособие. Андижан. 2024. 16. Xodjayev O. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2024 17. Hasanov Sh. Ma'naviyat va huquq asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2018. Axborot manbalari: 16. www. tdpu. uz 17. www. pedagog. uz 18. www. ziyonet. uz 19. www. edu. Uz 20. https://www.southampton.ac.uk/programmespecs/2425-8910-bsc-politics-and-international-relations
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: X.Abdupattayev – QDU, "Milliy g'oya va huquq" kafedrasida o'qituvchisi f.f.f.d (PhD)
9.	Taqrizchilar: A.A.Qambarov - Farg'ona davlat universiteti Falsafa kafedrasida professori, f.f.d (DSc) M.Karimov – Qo'qon shahar 25-maktab direktori.

